

## O'TKIR ISHIOREKTAL PARAPROKTIT KLINIK FORMALARIDA XIRURGIK DAVOLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mamanov Jamshid Baxromovich<sup>1</sup>,

Ilmiy rahbarlar: Yakubov Davron Ruslanovich<sup>2</sup>, Yodgorova Nodira Turg'unboyevna<sup>3</sup>

Toshkent tibbiyot akademiyasi 4-bosqich talabasi<sup>1</sup>,

2- son xirurgiya kafedrasida katta o'qituvchisi, asistenti, pHd<sup>2</sup>,

TTA mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya kafedrasida dotsenti t.f.n<sup>3</sup>

**Dolzarbli.** O'tkir paraproktit eng ko'p tarqalgan yiringli xirurgik kasalliklardan biri bo'lib, umumiy xirurgik kasalliklar ichida 0,5-4% ni, shoshilinch proktologik kasalliklarning 24-50 % ini tashkil etadi. O'tkir paraproktit 5-58% xolatda og'ir ko'rinishda (ishiorektal, pelviorektal, retrorektal, taqasimon) kuzatiladi, 4,0% xolatda yiring qorin bo'shlig'iga yorilishi, 1.2% xolatlarda son va genital sohalarga tarqalishi kuzatiladi. Operatsiyadan keyingi 24-88% holatda retsdiv paraproktit yoki to'g'ri ichak oqmasi kelib chiqadi, 6-27,9% holatda anal sfinkteri yetishmovchiligi, 17-36% holatarda orqa anal sohasida noqulaylik kelib chiqadi.

**Tadqiqot maqsadi:** O'zbekistonda o'tkir paraproktit bilan kasallangan bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yish hamda to'g'ri davo choralarini qo'llash orqali kasallikni tez va asoratsiz davolashda qo'llaniladigan usullarni o'rganish.

**Tekshirish materiali va usullari:** Toshkent shahar Mirzo Ulugbek tumani Rustamov's klinikasining yiringli xirurgiya bo'limida 2024-yilning oktabr-noyabr oylarida paraproktit bilan kasallangan hamda asosiy guruhga olingan 25 nafar bemorlar kasallik tarixi o'rganilib retrospektiv analiz o'tkazildi. Barcha bemorlarda aerob flori paraproktit kuzatildi.

**Natijalar tahlili va muhokamasi:** Yuqoridagi diagramma va jadvallar tahlilini hamda bemorlarning holati, kasallik tarixi o'rganilib davo muolajasi sifatida "Yiringli bo'shliqni ochish va ichki teshik likvidatsiyasi" operatsiyasi o'tkazildi. Bemorlar shifoxonada 2-9 kun davomida davolangan. Operatsiyadan keyingi davrda kuniga 1-2 maxal antiseptik (vodorod peroksid, betadin) ishlov berib turildi. Bemorlarga kundalik standartlar asosida antibiotik (seftriakson, levofloksatsin, metrogil) va analgetik (blokium, ketonal) davo muolajalari, ba'zi bemorlar esa qo'shimcha ravishda dezintoksikatsion (NaCl-0,9%, reosorbilakt) antigipoksik preparatlar infuziya qilingan.

### XULOSA:

1. O'tkir paraproktitning klinik formalaridan eng ko'p uchraydigan formasi ishiorektal paraproktit (80%) ekan. Qolgan formalardan: teri osti paraproktiti (12%), shilliq osti paraproktiti (8%) ni tashkil qildi
2. O'tkir paraproktitning turli klinik formalarida o'tkazilgan operatsiyalardan so'ng jarohatning eng tez bitishi teri osti paraproktitida (2-3 hafta) kuzatildi. Qolgan formalardan shilliq osti paraproktitida (3-4 hafta), hamda ishiorektal paraproktitida (1-1.5 oy) vaqt davom etganini kuzatdik.
3. O'tkir paraproktit bilan kasallangan bemorlarda maxaliy antiseptik va umumiy antibakterial davodan tashqari dezintoksikatsion, antigipoksik hamda to'qimalarda moddalar almashinuvini yaxshilovchi preparatlardan foydalanish davo samaradorligini yanada oshiradi. Asosiy jihatlardan biri kasallikka to'g'ri va erta diagnoz qo'yish hamda muvaffaqiyatli operatsiya o'tkazish, jarayonning murakkablashmasligiga imkoniyat yaratadi.